

## **МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИДАГИ ТА'ЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРОЙОНИДА РИВОЈЛАНІШ МАРКАЗЛАРИНІНГ АХАМИЯТІ.**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi  
 Pedagogik Mahorat markazi Maktabgacha,  
 boshlang'ich va maxsus ta'lif  
 metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi  
 Baytileuova Gu'lzar Maxset qizi*

**Annotaciya:** Maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotida tashkil etilgan rivojlantirish markazlarining ta'lif tarbiya jaroyonidagi ahamiyati, vazifasi, rivojlantiruvchi markazlarni tashkillashtirish va rivojlantiruvchi muhitni yaratish haqida so'z boradi.

**Аннотация:** В статье обсуждаются важность и функция центров развития, созданных в дошкольных образовательных организациях, в образовательном процессе, организация центров развития и создание развивающей среды.

**Annotation:** The article discusses the importance and function of development centers established in preschool educational organizations in the educational process, the organization of development centers, and the creation of a developmental environment.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lif, ta'lif-tarbiya, rivojlantiruvchi markaz, rivojlantiruvchi muhit, o'yin, mustaqil faoliyat.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, образование и воспитание, развивающий центр, развивающая среда, игра, самостоятельная деятельность.

**Keywords:** Preschool education, education and upbringing, developmental center, developmental environment, game, independent activity.

Maktabgacha ta'lif bosqichi — bu bolaning individual qobiliyatları, qiziqishlari va salohiyati namoyon bo'ladigan davrdir. Bolalar o'yin faoliyati orqali dunyonı o'rganadilar. Shu sababli, zamonaviy maktabgacha ta'lif tizimi rivojlantiruvchi muhitni yaratishga alohida e'tibor qaratadi. Bunda asosiy o'rinni rivojlantiruvchi markazlarga tegishlidir. Rivojlantiruvchi markaz — bu bolalarning mustaqil faoliyat yuritishiga imkon beruvchi, ularning yoshiga, ehtiyojlariga va qiziqishlariga mos tarzda tashkil etilgan faoliyat zonasini.

Ular bolalarning:

- aqliy rivojlanishi,
- ijodkorligi,
- nutq faoliyati,
- jismoniy harakatchanligi,

- shaxsiy sifatlari rivojiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Maktabdagacha ta'lim Vazirligininig maktabdagacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida 5 ta markaz tashkil etilgan: "Til va Nutq", "Qurish, yasash va matematika", "San'at", "Fan va tabiat", "Syujetli va rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazlaridir. Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar har tamonlama rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega , chunki bolalar markazlarda erkin faoliyat olib boradi. Bu bo'lsa bolalarning bilim va ko'nikmalarni yanada chuqurroq olishiga katta yordam beradi Tarbiyachi esa ularga yordamchi hisoblanadi. Bu esa bolalarni nutqini, erkin fikrlashini, xotirasini, jismoniy va ijtimoiy bilish kompitensiyalarini rivojlantiradi. Bolalar ongini rivojlantirishda asosiy faoliyat turi bu o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bola o'rgatilgan mashg'ulotni xotirada tez va mustahkam saqlaydi.

Markazlarda ham bolalar bilan o'yin orqali ishlash muhim o'rinni egallaydi. Buning uchun biz pedagoglar markazlarni bolajonlar uchun qulay, chiroyli toza holda jihozlab, barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zлari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini yaratish, ta'limga oid tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning zarur omili hisoblanadi. Guruhda rivojlanish markazlarini yaratishda, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda, o'yin faoliyatining yetakchi ro'lini hisobga olib, bu o'z navbatida har bir bolaning emotsional holatini yaxshilaydi, ularning ijobjiy histuyg'ularini, dunyoga, odamlarga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabat kompetensiyalarini rivojlantirish, o'zaro hamkorlikda bo'lish kabi maktabgacha ta'limning maqsadlari amalga oshiriladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash, davlat ta'lim siyosatining muhim vazifasidan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi ularning ijtimoiy sezgirlik, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Bu unga umri davomida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni o'ynaydi, shu sababli ularga ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z xizmatlarini

taqdim etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturiga muvofiq, mavzuni loyihalash mактабгача yoshdagи bolalar uchun mo‘ljallangan rivojlanish markazlarida ta’limga oid va tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu pedagoglarga har bir bolaning o‘ziga xosligi va takrorlanmasligini hisobga olgan holda o‘qitish va tarbiyalashga yakka tartibda yondashishni amalga oshirish, ularning individual qiziqishlari va ehtiyojlarini qo’llab-quvvatlash imkonini beradi. Mактабгача ta’lim tashkiloti jamoasi o‘rnii kelganda rivojlanish markazlarini tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning rivojlanishida, o‘yin faoliyatining yetakchi rolini e’tiborga olish kerak.

Bu esa, o‘z navbatida, har bir bolaning emotsiyonal rivojlanishini ta’minkaydi, u holda ijobjiy his-tuyg‘ularni shakllantiradi, dunyoga, insonlarga, o‘ziga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, turli sheriklik shakllariga kirishish ko‘nikmalarini rivojlaniradi - bu esa mактабгача ta’limning asosiy maqsadlaridir.

**Rivojlantiruvchi muhit** - bu mактабгача ta’lim tashkilotlarida bolalar hayotini tashkil etishni ta’minkaydigan sanitariya-gigiyena, moddiy-texnik, psixologik, pedagogik, estetik sharoitlar majmuidir. Rivojlantiruvchi muhit - rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, tashkiliy, rag‘batlantiruvchi, kommunikativ funksiyalarni bajarish uchun zarur hisoblanadi. Pedagoglar har bir bolaning yoshi va rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olishi, ular uchun katta vazifalarni qo‘ymaslik uchun butun guruhni bilishi lozim.

Guruhdagi rivojlanish markazlari mактабгача yoshdagи bolalar uchun juda zarur bo‘lib, jihozlangan rivojlanish markazlaridagi faoliyat bolalarning qiziqishlarini yuzaga chiqarish, atrof-olamni mustaqil o‘rganish, atrof-olamni ijodiy nuqtai nazar bilan aks ettirishga harakat qiladi.

Guruhdagi rivojlanish markazlari tarbiyachi uchun juda zarur hisoblanadi: *Birinchidan*, ular bolaning individualligini va mактабгача bo‘lgan bolaning yutuqlarini, rivojlanishini qo’llab-quvvatlashda tarbiyachi uchun samarali yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi;

*Ikkinchidan*, ular bolalarni faol, maqsadli va turli faoliyat turlarida ishtirok etishlarida keng imkoniyatlarni yaratishni ta’minkaydi;

*Uchinchidan*, rivojlanish markazlari tarbiyachi bolalar faoliyatini tashkil etishi uchun maxsus joy sifatida xizmat qiladi va ta’lim-tarbiya jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi.

### **Rivojlantirish markazlarida pedagogning vazifasi.**

Pedagoglarning vazifasi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochish va ularni rivojlantirishga ko‘maklashish uchun rivojlantirish markazlari va ulardagi vositalardan foydalananishdir. Shu bois bu davrda mактабгача ta’lim tashkilotida ushbu markazlarni

to‘g‘ri jihozlashga alohida e’tibor qaratiladi, u holda bolaning ijodiy faoliyati shakllanadi va rivojlanadi.

Tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning turli innovatsion, zamonaviy metodlari, shakllari va vositalaridan foydalanishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘g‘ri ishlab chiqilgan va jihozlangan rivojlanish markazlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mavzuni loyihalash, ta’lim-tarbiya faoliyatini olib borish jarayonida rivojlantirish markazlari tarkibidagi barcha komponentlar (o‘ynchoqlar, jihozlar, ta’limga oid materiallar) o‘zgartiriladi, yangilanadi va to‘ldiriladi;
- rivojlanish markazlari bolalarning kattalar bilan sheriklikdagi (shu bilan birga, turli yoshdagi bolalar guruhi) faoliyatlarida o‘zaro uchrashish, bolalarning harakat faolligi, shu bilan birga, bolalarning bir-birlariga yordam berish imkoniyatlarini ta’minlaydi;
- inkyuziv ta’limni tashkil etishda unga zarur shart-sharoitlar yaratish kerak;
- ta’limga oid-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda milliy-madaniy, iqlim sharoitlarini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Rivojlantirish markazlarini tashkil etishning asosiy talablari.

“Ilk qadam” davlat dasturini amalga oshirish hamda boshlang‘ich va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini bajarishdir. Rivojlantirish markazlarida bir vaqtning o‘zida faol muloqot va bilish-ijodiy faoliyatga tarbiyalanuvchilarni yakka tartibda, shu bilan birga, kichik (alohida) guruhlarda jalb etish mumkin.

Rivojlantirish markazlaridagi yetakchi faoliyat - bu o‘yin bo‘lib, amaliyotchi pedagoglarning bu faoliyatni keng qo‘llashga qiziqishi ortib bormoqda.

Rivojlantirish markazlari bola shaxsini rivojlantirish omili sifatida.

Rivojlantiruvchi muhit bolalarning yosh imkoniyatlari, jinsiy layoqatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda yaratilishi va kun davomida bola o‘zi yoqtirgan narsani topadigan tarzda tuzilishi kerak. Materiallarni, didaktik o‘yinlarni, qo‘llanmalarni, bolalar adabiyotini tanlashda bolalarning turli darajadagi rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish va har bir bolaning ijobiy rivojlanishi uchun ishlarni amalga oshirishga ko‘maklashish kerak.

Bolalar bog‘chasida rivojlanish muhiti - nafaqat bolalarni keyingi ta’limga tayyorlaydigan alohida mavzuli (tematik) burchaklar va zonalar majmuasi, balki bolaning “yashash joyi” bo‘lib, bola deyarli kundalik vaqtining zarur qismini o‘scha yerda o‘tkazadi va g‘oyalarini, qiziqishlarini amalga oshiradi. Atrof-muhit va qulay xavfsizlikka, eng yaxshi qulaylikka guruhning ichki qismining uy sharoiti bilan o‘xhashligi orqali erishiladi. Bu davlat tashkilotlari ta’siri ostida yuzaga keladigan stressdan xalos bo‘lishga yordam beradi, xavfsizlik, ishonch hissini yaratadi, bolaning muvaffaqiyatli, shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun asos bo‘lgan ijobiy hissiyot kayfiyati paydo bo‘lishi va mustahkamlanishi uchun sharoit yaratadi.

Guruh maydoni maktabgacha yoshdagi bolalarga bir vaqtning o‘zida bir-biri bilan bog‘lanmasdan turli faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini berishi kerak. Alohida markazlar bir-biridan bo‘limlar, bo‘shliqlar bilan ajratilishi mumkin. Alohida markazlar bolaga o‘zi uchun qiziqarli mashg‘ulotni tanlashga yordam beradi va boshqa mashg‘ulotlarga e’tiborni chalg‘itmasdan, kerakli resurslar, o‘yinchoqlar tufayli unga doimiy qiziqishni saqlab qoladi. Alohida markazlarning joylashuvi bir faoliyatdan ikkinchisiga silliq o‘tishga hissa qo‘sishini yaxshilash hisoblanadi. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi obyektlar turli funksional bo‘shliqlarda joylashganligi uchun puxta o‘ylangan holda yaratilishi kerak.

Ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantirish markazlaridan foydalangan holda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi bugungi kunda juda dolzarbdir. Bu boshlang‘ich va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo‘yicha davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi amalga oshirilishi hamda ta’limning o‘quv-intizomiy modelidan shaxsga yo‘naltirilgan modeliga o‘tish bilan bog‘liq.

"Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi asosida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv usulida ta’limga oid jarayonni tashkil etish. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari ro‘yobga chiqariladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to‘planadigan ta’lim muhitini yaratishni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta’lim tizimi qayta qurila boshlandi - avtoritar tizimdan pedagogik jarayonni qurishning shaxsga yo‘naltirilgan modeliga o‘tilmoqda.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv - bu pedagogning e’tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas’uliyati hissini rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy qobiliyatlari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan psixik shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta’limning asosiy qadriyatining bunday e’tirof etilishi shaxsning o‘ziga xos shakllanishi hisoblanadi. Biz har bir bolaga uning xususiyatlari, hayotiy qadriyatlari, intilishlarini aniqlash asosida o‘z rivojlanish yo‘llarini tanlash huquqini berishimiz kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim faollik markazida tarbiyalanuvchining o‘zi, ya’ni bolani shaxs sifatida - uning istaklari, niyatlari, maqsadlari, kam uchraydigan kichik hayotiy tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu yondashuv bilan ta’lim jarayoni "bilimlarni kattalardan bolaga o‘tkazish" modelidan "bola tashabbuslari ma’qullanadigan va bola ta’lim jarayonida faol ishtirok etadigan" modelga yo‘naltirilishi kerak.

Rivojlantirish markazlariga qo‘yiladigan talablar:

Rivojlantirish markazlarini tashkil etish guruhning, shu jumladan, an’anani amalga oshirish uchun moslashtirilgan tashkilotga tutash yoki qisqa masofada joylashgan hududda (keyingi o‘rinlarda - joylarda) ta’limni maksimal darajada sifatli

amalga oshirishni ta'minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har bir yosh bosqichining xususiyatlariga muvofiq rivojlantirish, ularning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish va kamchiliklarini tuzatish uchun materiallar, jihozlar ta'minoti;

- rivojlanish markazlari bolalarning (turli yoshdagi bolalar) va kattalarning aloqasi va birgalikdagi faoliyati, bolalarning motor faolligi, shu bilan birga, yolg'iz bo'lib ijod qilish uchun imkoniyatlarni ta'minlashi kerak.

Maktabgacha yosh - bu shaxs rivojlanishining alohida asosidir. Bu davrda ko'plab omillar ta'sirida bolaning qobiliyatları, ko'nikmalari va kelajakdagi xarakteri shakllanadi. Bolaning yonida bo'lgan kattalarning vazifasi rivojlanayotgan bolaga har tomonlama qulay muhit yaratishdir.

Rivojlantiruvchi markazlar deyarli har kuni faoliyat yuritadi. Bolalar markazlar orasida erkin harakatlanadi. Markazlarning har birida o'tkaziladigan vaqt har bir bola uchun turlicha bo'lishi mumkin. Agar bolalar o'yin bilan shug'ullansa, materiallardan ijodiy foydalanishadi va ma'lum bir faoliyatda ko'proq vaqt sarflab, bir markazdan ikkinchisiga kamroq harakat qilishadi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida o'yin va o'yin faoliyatini tashkil etish bolalarning yosh imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda yaratiladi va bola kun davomida qiziqarli o'yin faoliyatini topadigan tarzda loyihalashtiriladi. Didakti k materiallar, o'yinlar, qo'llanmalar va bolalar adabiyotlarini tanlashda bolalarning ko'p bosqichli rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi, bu esa har bir bolaning rivojlanishida ijobiy rivojlanish uchun zarur "tuzatishlar" kiritishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, maktabgacha ta'lim muassasalarida rivojlantiruvchi markazlarning tashkil etilishi – bu zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir. Ular bolalarni bilim bilan to'ldiribgina qolmay, balki ularni o'z qobiliyatlarini mustaqil ravishda namoyon etishga, hayotiy tajriba orttirishga yo'naltiradi. Har bir tarbiyachi rivojlantiruvchi markazlar orqali bolalar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ularning intellektual va ruhiy rivojiga zamin yaratishi mumkin.

### **Foydalangan adabiyotlar.**

1. Davlat maktabgacha ta'lim standarti – MTTda o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni va shakllarini belgilaydi (2020-yil).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori – "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. "Maktabgacha ta'lim metodikasi" – Tahrir: G. O. Vohidova, T., 2021

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlar, rivojlantiruvchi faoliyatlar va markazlar haqida ma'lumotlar berilgan.

4. "Maktabgacha ta'limda integratsiyalashgan yondashuv" – M. Qodirova, T., 2020  
Har xil rivojlantiruvchi markazlarni uyg'unlashtirib, bolalarni har tomonlama rivojlantirishga doir metodik yondashuvlar.

5. “O‘yin orqali ta’lim berish metodikasi” – Z. Eshonqulova, T., 2019  
Faoliyat turlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar, markazlar asosidagi ta’lim.
6. “Maktabgacha ta’lim tizimida rivojlantiruvchi muhit yaratishning pedagogik asoslari” – *Ilmiy-amaliy jurnal: Ta’lim va rivojlanish, 2023-yil 1-soni*.
7. “Rivojlantiruvchi markazlar orqali bolalarni erkin fikrlashga o‘rgatish” – *Bolalik olami jurnali, 2022-yil 3-soni*.
8. “Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda rivojlantiruvchi markazlar faoliyati” – *O‘zDJTU ilmiy to’plami, 2021*.
9. [www.mdo.uz](http://www.mdo.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim agentligining rasmiy sayti (me’yoriy hujjatlar, yangiliklar, metodik qo‘llanmalar).

**Ishtirokchi anketasi**

<b>Hudud</b>	Qaraqalpaqstan Respublikasi Nukus shahri
<b>Muallif F.I.SH</b>	Baytileuova Gúlzar Maxset qızı
<b>Ish joyi</b>	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagogik Mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikasi kafedrasi
<b>Lovozimi</b>	katta o‘qituvchi
<b>Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni</b>	yo‘q
<b>Maqola, máruza nomi</b>	Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya jarayonida rivojlanish markazlarining ahamiyati.
<b>Shóba nomi</b>	
<b>Bağlanish ushın telefon raqam</b>	+99893866 4949
<b>Elektron manzıl (e-mail)</b>	